<b>Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	748
<b>Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li</b>	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI .....	754
<b>Talapova Nargiza Baxriddinovna</b>	
ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ .....	758
<b>Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли</b>	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	764
<b>Toxirov Dilyor Davlatovich</b>	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	768
<b>Babadjanov Umidbek Kamildjanovich</b>	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI .....	773
<b>Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI .....	777
<b>Abdikarimova Zilola Baxramovna</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI .....	784
<b>Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna</b>	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH .....	788
<b>Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	791
<b>Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li</b>	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
<b>Maxmudov S.T.</b>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ .....	801
<b>Юсупова Н.Т.</b>	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI .....	807
<b>Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi</b>	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
<b>Abdumalikova G.F.</b>	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI .....	821
<b>Kenjayev Ikrom Ergashboyevich</b>	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI .....	828
<b>Azimova Moxinur Nozimovna</b>	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI .....	834
<b>G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHIYATI .....	839
<b>Murtazayeva Gulrux Isabek qizi</b>	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA) .....	845
<b>Safarov Manuchexr Axtam o'g'li</b>	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	852
<b>Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich</b>	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI .....	857
<b>Maxmudova Aziza Pirmamatovna</b>	





yondashuvlari va barqaror rivojlanish tamoyillarining uyg'unlashuvini o'zida mujassam etadi. Shu sababli, mazkur mavzuni chuqur ilmiy o'rganish mamlakat turizm tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun zarur nazariy hamda amaliy asoslarni yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida turizm faoliyatini diversifikatsiya qilish masalasi turli iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy jihatlarida o'rganilgan bo'lib, u zamonaviy turizm nazariyasining muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Milliy adabiyotlarda bu boradagi izlanishlar, asosan, turizm sohasining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, xizmatlar turlarini kengaytirish, yangi turistik mahsulotlarni yaratish va hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

Jumladan, Q.X. Abduraxmonov o'z ilmiy izlanishlarida turizmning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning ijtimoiy ahamiyati va xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi ta'sirini atroflicha tahlil qilgan. U turizm faoliyatini diversifikatsiya qilish orqali hududlar iqtisodiy faolligini oshirish, mahalliy bandlikni kengaytirish va kichik biznesni rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

I.S. Tuxliyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizmni modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan bo'lib, muallif turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, turizm raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron bronlash tizimlari va virtual turlarni rivojlantirish xizmatlar turini kengaytirishning zamonaviy shakli hisoblanadi.

M.Q. Pardayev o'z tadqiqotlarida turizmni iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida baholab, soha samaradorligini oshirishda diversifikatsiyaning investitsion va marketing jihatlarini tahlil etadi. U turizm klasterlarini shakllantirish, mintaqaviy brendlash va xalqaro turizm oqimlarini jalb etishda strategik diversifikatsiya muhim rol o'ynashini ilmiy asosda isbotlagan.

M.T. Alimova turizmda ekologik va madaniy diversifikatsiya konsepsiyasini ilgari surib, ekoturizm, agroturizm va etnoturizm turlarining O'zbekiston sharoitida rivojlantirish istiqbollari o'rganadi. Uning fikricha, turizmning bu yo'nalishlarini kengaytirish barqaror iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi omildir.

B.Sh. Safarov tadqiqotlarida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish bilan bir qatorda, turizmni mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqadi. Muallifning fikricha, xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish jarayonida davlat boshqaruvi va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

S.A. Abduhamidov esa turizm sohasini boshqarishda strategik yondashuvni ilgari surib, turistik talab va taklif muvozanatini ta'minlashda diversifikatsiya mexanizmlarining ahamiyatini asoslagan. U turizm marketingi, turistlar segmentatsiyasi hamda innovatsion xizmat turlarini joriy etish orqali O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini taklif etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar qatorida P. Kotler, D. Ricardo, M. Porter, C. Cooper va J. Fletcherlarning asarlarida diversifikatsiya nazariyasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik vosita sifatida talqin etilgan. Ayniqsa, Porterning "raqobat ustunligi" konsepsiyasi turizmda differensial xizmatlar orqali yangi bozorlarga chiqish va brend yaratish zarurligini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turizm faoliyatini diversifikatsiya qilishga oid nazariy bilimlarning shakllanish xususiyatlari masalalari mahalliy aholining faol ishtirokini ta'minlash nuqtai nazaridan kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy-ijtimoiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va geografik tahlil usullari tashkil etdi.

Mazkur yondashuvlar turizm faoliyatining diversifikatsiya jarayonini hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir butun tizim sifatida o'rganishga imkon berdi. Shu bilan birga, turizm xizmatlarini rivojlantirishda mahalliy resurslardan oqilona foydalanish, aholining bandligini oshirish hamda innovatsion turizm turlarini shakllantirish imkoniyatlari aniqlanib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Tadqiqot davomida mavjud milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda Turizm qo'mitasining rasmiy hisobotlari tahlil qilinib, turizm sohasida diversifikatsiya jarayonining amaliy jihatlari nazariy asoslar bilan uyg'un holda o'rganildi. Natijada, diversifikatsiyaning turizm rivojlanishidagi o'rni, omillari va istiqbolli yo'nalishlarini belgilovchi metodologik asoslar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday turistik firma faoliyatining eng muhim bosqichi — bu yangi turistik mahsulotni ishlab chiqish va uni bozorga muvaffaqiyatli tarzda chiqarish jarayonidir. Chunki har bir turistik mahsulot ma'lum vaqt o'tishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotadi va mijozlar orasida unga bo'lgan talab kamayadi. Shu bois, turizm sohasida faoliyat



yurituvchi har bir firma o'zining bozordagi yetakchilik mavqeini saqlab qolish uchun muntazam ravishda yangi, raqobatbardosh va innovatsion mahsulotlarni yaratishi zarur.

Turistik mahsulotlarni shakllantirishda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir mijozning manfaatlarini, ehtiyojlari va sayohat maqsadlari inobatga olingan holda maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, ommaviy turizm mahsuloti ham keng qo'llaniladi — u mijoz uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar majmuasidan iborat bo'lib, iste'molchi o'z istagiga ko'ra bu to'plamni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish joyida kengaytirishi yoki o'zgartirishi mumkin.

Turistik mahsulotlarni tahlil qilishda ularni tannarxi, mavsumiylik, turizm turi (ekoturizm, madaniy turizm, sog'lomlashtirish turizmi va boshqalar), foydalaniladigan transport turi (avtobus, avtomobil, samolyot va h.k.), ommaviylik darajasi, davomiyligi va boshqa mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin.

Turistik mahsulot tarkibiga, odatda, quyidagi asosiy iste'molchilik xususiyatlari kiradi: qulaylik, xavfsizlik, narx va sifat muvozanati, xizmat ko'rsatish madaniyati, transport va joylashtirish sharoitlari, hamda sayohat davomida yaratiladigan qulay psixologik muhit. Ushbu omillar turistik mahsulotning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etiladi (1-jadval).

1-jadval. Turistik mahsulotning asosiy iste'mol qilish xususiyatlari<sup>1</sup>

Iste'mol xususiyatining nomi	Iste'mol xususiyatining tavsifi
Asoslanganlik	Barcha xizmatlarning taqdim etilishi sayohat maqsadi va turistning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tegishli sharoitlar bilan asoslanishi zarur.
Ishonchlilik	Mahsulotning haqiqiy mazmuni reklama ma'lumotlari bilan to'liq mos kelishi va taqdim etilgan axborotning ishonchliligi bilan belgilanadi.
Samaradorlik	Turist eng kam xarajat evaziga eng katta natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.
Butunlik	Mahsulotning tugallanganligi va u turizm ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi.
Aniqlik	Mahsulotdan foydalanish tartibi, yo'nalishi va mazmuni turistlar hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun aniq va tushunarli bo'lishi lozim.
Moslashuvchanlik	Xizmat ko'rsatish tizimidagi mahsulotning iste'mol turi boshqa turlarga moslasha olish qobiliyati bilan ajralib turadi.
Nafillik	Mahsulot bir yoki bir nechta maqsadlarga, masalan, dam olish, bilim va madaniy saviyani oshirish kabi yo'nalishlarga xizmat qilish orqali turistning muayyan ehtiyojlarini qondiradi.

Turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish jarayonida tashqi muhit omillari bilan uzviy aloqada bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon iste'molchilar, raqobatchilar, hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Tashqi muhit tarkibiga davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoat va professional birlashmalar, xorijiy mamlakatlarning vakolatxonalari hamda turli uyushmalar kiradi. Ularning faol ishtiroki turizm sohasida barqaror rivojlanish, sifatli xizmat ko'rsatish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Turizmning boshqaruv ob'ekti sifatidagi eng muhim xususiyat — bu turistik mahsulotning o'ziga xosligi va uning shakllanish manbasidan ajralmasligidir. Turizm menejmentida ushbu xususiyatni to'liq anglash uchun maqsadlar aniq o'lchov ko'rsatkichlari bilan ifodalanishi lozim. Ammo turizmning o'ziga xos tabiati sababli bu maqsadlarni aniq o'lchash ko'p hollarda murakkab jarayon hisoblanadi.

Turizm tashkilotlari faoliyatida aniq o'lchanadigan maqsadlarning yo'qligi ularning unumdorligini, samaradorligini va muvaffaqiyat darajasini ob'ektiv baholashni qiyinlashtiradi. Shunga qaramay, turizmda sodir bo'ladigan barcha hodisa va jarayonlarni (siyosiy vaziyatning o'zgarishi, iqlim sharoitining keskin yomonlashuvi va boshqa tashqi omillar) ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish orqali salbiy ta'sirlarni kamaytirish mumkin.

Turistik mahsulotning o'ziga xosligi, asosan, turistik talabning bir xil emasligi va iste'molchilarning turfa xususiyatlariga bog'liq. Quyidagi omillar ushbu jarayonni yaqqol ifodalaydi:

Turistik mahsulotning sezilmasligi va saqlanmasligi.

Turistik xizmatning mohiyati tovar shaklida ifodalanmaganligi sababli uni oldindan ko'rish yoki sinovdan o'tkazish imkoni mavjud emas. Shu bois, turistik kompaniya menejerining asosiy vazifasi — mijozni taqdim etilayotgan xizmatning foydaliligi va ishonchliligiga ishonirishdan iborat. Turistik mahsulot sifati turli omillarga — yetkazib beruvchilar, sayohat joyi, mavsum va vaqtga qarab farqlanadi.

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Turistik xizmatlar iste'molchilarining xilma-xilligi.

Turli toifadagi turistlar sayohat maqsadi, xizmatlarga bo'lgan talabi hamda to'lov imkoniyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, har bir turist toifasi o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lgan turistik bozor segmentiga moslashtirilgan xizmatlarni talab qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning yuqori darajadagi ahamiyati.

Mamlakatning iqtisodiy holati, turistik mintaqaning ekologik holati, yashash va mehnat sharoitlari kabi omillar turizmning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turizmning o'ziga xos jihati shundaki, eksportga mo'ljallangan mahsulot mamlakatdan tashqariga chiqarilmaydi, balki aynan shu mamlakat hududida iste'mol qilinadi. Bunda turist o'zini qiziqtirgan mahsulotni iste'mol qilish uchun ma'lum masofani bosib o'tadi va u yerdagi turistik xizmatlardan bevosita foydalanadi.

Mintaqada turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi, eng avvalo, turizm sohasida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish hamda iqtisodiy jihatdan zaif hududlarni kompleks rivojlantirishni rag'batlantirish orqali namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda turoperatorlar va turizm xizmatlari ta'minotchilari o'z faoliyatini yangi, diversifikatsiyalangan formatlarda tashkil etmoqdalar. Turoperatorning eng muhim vazifasi — kompaniyaning turizm bozorida barqaror pozitsiyasini saqlagan holda, uzluksiz va barqaror daromad manbalarini shakllantirishdan iborat.

Shu maqsadda turoperatorlar raqobatbardosh turistik bozorni differensiallashtirish asosida o'z iste'molchilar segmentini kengaytirish va rivojlantirishga intilmoqdalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turoperatorlarning yangi, innovatsion faoliyat turlarini quyidagicha tasniflash mumkin (2-jadval).

## 2-jadval. Turistik bozor turoperatorlarining tasnifi <sup>2</sup>

Turoperator turi	Faoliyat tavsifi
Faoliyat turi bo'yicha	
Ommaviy bozor turoperatorlari.	Ommaviy bozor turoperatorlari o'z faoliyati davomida turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan mashhur yo'nalishlarga mo'ljallangan turpaketlarni taklif etadilar. Ular, odatda, charter reyslardan foydalanish orqali ommaviy sayohatlarni tashkil etadilar. Ushbu turdagi turoperatorlar turizm xizmatlari bozorida eng keng ko'lamli mijozlar segmentiga xizmat ko'rsatadi.
Ixtisoslashgan turoperatorlar.	Ixtisoslashgan turoperatorlar ma'lum bir iste'molchi guruhining individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maxsus turpaketlarni ishlab chiqadilar. Ular, odatda, ekologik, madaniy, sport, ta'limiy yoki sog'lomlashtirish yo'nalishlarida ixtisoslashgan xizmatlarni taklif etadilar. Bu turoperatorlar yuqori sifatli va maxsus yo'nalishlarga ega bo'lgan sayohat xizmatlari bilan ajralib turadi.
Onlayn turoperatorlar.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anaviy turoperatorlar asta-sekin universal turlarni shakllantirishdan mustaqil sayohatchilar uchun shaxsiy tavsiyalarni taqdim etuvchi "sayohat mutaxassislari"ga aylanib bormoqda. Ular meta-qidiruv mexanizmlari, agregatorlar, onlayn platformalar va algoritmik tavsiyalar orqali foydalanuvchilarga moslashtirilgan xizmatlarni ko'rsatadilar. Bu jarayon turizm sohasida innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish imkonini beradi.
Faoliyat joyi bo'yicha	
Mintaqaviy turoperatorlar va turistik markazlar.	Mintaqaviy turoperatorlar yangi ichki hududlarni o'zlashtirishda tashabbuskorlik ko'rsatib, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishadi. Bunday hamkorliklar mintaqaviy tashuvchi kompaniyalar, muzeylar, restoranlar va mehmonxonalarni o'z ichiga olgan boy turizm ekotizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
Mahalliy turoperatorlar.	Mahalliy turoperatorlar mamlakat ichki turizmni rivojlantirishga ixtisoslashgan bo'lib, turfirmalarga murojaat qilgan iste'molchilarga mamlakat bo'ylab turlarni taklif etadilar. Ular ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirishda, madaniy va tarixiy obidalarni ommalashtirishda muhim rol o'ynaydi.
Chiquvchi turizm turoperatorlari.	Chiquvchi turizm turoperatorlari turistlarga o'z yashash mamlakatidan tashqarida tashkil etiladigan turlarni taklif etadilar. Ularning asosiy vazifasi xorijiy sayohatlarni tashkil qilish, xizmat ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik o'rnatish hamda xalqaro turizm aloqalarini rivojlantirishdan iborat.
Qabul qiluvchi (reseptiv) turoperatorlar.	Qabul qiluvchi turoperatorlar (reseptiv operatorlar) bevosita xorijiy turistlarni mamlakatda kutib olish, ular uchun tur dasturlari va dam olish yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar. Ular mahalliy provayderlar — mehmonxonalar, transport kompaniyalari va gidlik xizmatlari bilan bevosita shartnomalar asosida ishlaydi. Ushbu turdagi operatorlar mamlakat imidjini shakllantirishda va xalqaro turizm oqimini jalb etishda muhim o'rin tutadi.


<sup>2</sup> Manba: tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.



Tashabbuskor turoperatorlar.	Tashabbuskor turoperatorlar turistlarni boshqa davlatlarga yuborish, shuningdek, turistlarning iltimosiga ko'ra, qabul qiluvchi operatorlar bilan bevosita yoki oldindan kelishuv asosida hamkorlikni amalga oshiradilar. Ular turizm jarayonida vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri kelishuvlar orqali xizmatlar sifatini oshirishga intiladilar.
O'zga mamlakatda faoliyat yurituvchi turoperatorlar.	Ushbu turdagi turoperatorlar boshqa davlatda joylashgan bo'lib, o'z turistlarini qabul qiluvchi mamlakatda kutib olishadi va ular uchun tur paketlarini taqdim etadilar. Ularning faoliyati xalqaro hamkorlikni kengaytirishga, tajriba almashinuvini rivojlantirishga va global turizm tarmog'ini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, turizm bozorida turoperatorlar faoliyatining diversifikatsiya usullari biznes va boshqaruv jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Diversifikatsiya jarayoni shunday moslashuvchanlikni talab qiladiki, rejalashtirish faoliyatining dastlabki bosqichida har bir yo'nalish ehtimoli inobatdan chetda qoldirilmasligi zarur.

Diversifikatsiyaning har bir shakli o'ziga xos yondashuv va chuqur tahlilni talab etadi. Shu bilan birga, turli usullarni bir vaqtning o'zida ko'rib chiqish imkoniyati turizm biznesining strategik boshqaruvida yanada kengroq iqtisodiy sinergiyani ta'minlaydi (1-rasm).



1-rasm. Turizm bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarini diversifikatsiya qilishning gorizontal modeli

Mintaqalar miqyosida turizmni diversifikatsiya qilish esa o'z navbatida turli xil va individual turistik mahsulotlarni shakllantirish, rejalashtirish, loyihalashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv natijasida turizm sohasida to'ldiruvchan sinergiya, innovatsion g'oyalar va barqaror iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi<sup>3</sup>.

Hozirgi davrda turizm sohasida diversifikatsiyaning uch asosiy turi mavjud. Gorizontal diversifikatsiya texnologik jarayonning bir bosqichida faoliyat yurituvchi, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki o'xshash xizmatlarni ko'rsatuvchi korxonalar birlashgan hollarda sodir bo'ladi. Misol tariqasida, yangi turistik marshrutlar yoki yo'nalishlarni tashkil etish, shuningdek, mehmonxona zanjirlarini birlashtirish orqali turistik faoliyatning yangi turlarini rivojlantirishni keltirish mumkin.

Gorizontal diversifikatsiya sharoitida turistik korxonalar bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib, unga ta'sirini kuchaytirish maqsadida mahsulot turlarini kengaytiradi, xizmatlar sifatini oshiradi hamda sotish bozorlarini

3 Benur, A. M., & Bramwell, B. (2015). Tourism product development and product diversification in destinations. *Tourism Management*, 50, 213–224.



ko'paytirishga intiladi. Ushbu jarayon korxonalarining barqaror rivojlanishini, mijozlar bazasining kengayishini va daromad manbalarining ko'payishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turistik korxonalarining gorizontaal diversifikatsiyasi innovatsion turizm mahsulotlarini joriy etish, xizmatlarning xilma-xilligini va sifatini oshirish, faoliyat geografiyasini kengaytirish orqali daromadni ko'paytirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan, turizm bozorida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun gorizontaal diversifikatsiya modeli ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi vaqtda turizm sohasidagi diversifikatsiyaning asosiy vazifasi turfirmalarni qayta yo'naltirish strategiyasini shakllantirish, strategiya parametrlariga rioya etilishini nazorat qilish, iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlarini monitoring qilish hamda zamonaviy turizm xizmatlarini takomillashtirishdan iboratdir. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekiston turizmidagi tadbirkorlik subyektlari uchun biznesni diversifikatsiya qilishning quyidagi yo'nalishlarini taklif etish mumkin: turoperatorlarni O'zbekiston hududiga tashrif buyurayotgan xorijiy turistlarni rag'batlantirish, ularga hamrohlik qilish hamda uchrashuvlar, transferlar, ekskursiyalar, ovqatlanish va joylashtirish xizmatlarini tashkil etishga yo'naltirish; turistik xizmatlar bozorida faoliyatni samarali davom ettirish uchun ichki turizmga turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishning gorizontaal va vertikal shakllardan keng foydalanish; konglomerativ diversifikatsiyani joriy etish orqali turfirmalarning asosiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan yangi yo'nalishlarni rivojlantirish, mavjud turlarni boyitish, yangi aviakompaniyalar va mehmonxona majmualarini tashkil etish; mavjud yo'nalishlar bo'yicha turlar xilma-xilligini takomillashtirish, yangi turizm turlarini rivojlantirish hamda sayohatlarning mavsumiyligini yumshatish maqsadida turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish. Natijada, turistik mahsulotning diversifikatsiyasi firmalarga ichki turizm iste'molchilari uchun mo'ljallangan noyob mahsulotlar yaratish, o'z raqobatbardoshligini saqlab qolish va iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslashish imkonini beradi. Diversifikatsiyaning barcha shakllari nafaqat hozirgi bosqichda, balki uzoq muddatli istiqbolda ham korxonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, turizm industriyasida barqaror rivojlanish omili sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston hududlarida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonini ilmiy asosda amalga oshirish esa inflyatsion tebranishlar xavfini kamaytirishga, ichki va kirish turizm bozorlarini rivojlantirish orqali aholini ish bilan ta'minlash hamda ularning daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustda "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. Tuxliyev I. S., Po'latov M. E., Berdimurodov A. Sh. *Turizm sohasining zamonaviy atamaları izohli lug'ati*. – Samarqand, 2019-yil.
4. Tuxliyev I. S., Raximova R. M. (2023). *Guidelines for the effective use of the "Travel around Uzbekistan" program in the development of local tourism. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, ISSN 2277-3630, Impact Factor 8.036, 12(07), 11–15.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---